

Ansambl ijrochiligi darslarida o'quvchilarni ijro texnikasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (qashqar rubobi misolida)

Jaqsiliq Jarilqasinovich Saitov
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Annotatsiya: Qashqar rubobi sinfi misolida ansambl ijrochiligi darslarida o'quvchilarning texnik mahoratini rivojlantirish uchun to'g'ri metodik yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Ansambl - ma'lum vokal yoko cholg'u musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi, dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor va aktyorlar ijodining uyg'unligi, tusi bir xil, bichimi bir-biriga monand bo'lgan kiyim-kechaklar majmui. Musiqiy asarning badiiy obrazi va uni talqin etishning umumiy rejasini tuzish, chuqur individual jarayondir. Uni xotirada muxrlash va kuzatish ancha qiyin hisoblanadi. Sozanda o'zi ijro etmoqchi bo'lgan musiqiy asar mohiyatini so'z bilan taxminiy tushuntirib (izohlab) berishdan ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri asar sur'ati, ovoz kuchi va ta'sirchanligini ijro orqali ifodalashni afzal ko'radi.

Kalit so'zlar: cholg'u musiqa asarlari, ansambl, sozandalar, xalq cholg'ulari orkestri, ansambl sozandalari, dirijyor, turli usullar, metodlar

Improving the methodology for developing students' performance techniques in ensemble performance classes (on the example of the kashgar rubobi)

Zhaksiliq Jarilqasinovich Saitov
Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: On the example of the Kashgar rubobi class, it is important to use the correct methodological approach and modern technologies to develop students' technical skills in ensemble performance classes. An ensemble is a joint performance of a certain vocal or instrumental musical work by several performers, a harmony of the creativity of a playwright, director, artist, composer and actors, a set of costumes that are the same in color and similar in style. Creating an artistic image of a musical work and a general plan for its interpretation is a deeply individual process. It is much more difficult to imprint and observe it in memory. Rather than trying to explain (explain) the essence of the musical work he wants to perform in words, the musician

prefers to directly express the tempo, power of sound, and impact of the work through performance.

Keywords: instrumental music, ensemble, musicians, folk instrument orchestra, ensemble musicians, conductor, various methods, techniques

Ansambl ijrosi uchun tanlangan yangi asarlarni sozandalar birgalikda o'qib (chitka), tahlil etib chiqqanlaridan keyin, musiqiy asar ustida mashq qilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda ansambl sozandalari o'zlarining asar ijrosiga taalluqli talqin, fikr-mulohaza va takliflarini bildiradilar. Bunda har bir sozandaning faolligi hamda sozandalarning badiiy jihatdan bir-biriga yaqinlik darajalari aniqlanadi.

Xalq cholg'ulari orkestrlari ijro etadigan asarlar saviyasining yanada yuqori bo'lishi uchun hamma sozandalarni o'zining auktakti, imo-ishorasi va qo'l harakatlari bilan boshqarib turadigan rahbar - dirijyor faoliyat yuritishiga zarurat tug'iladi. Mukammal musiqiy bilimga ega bo'lgan kuchli sozanda o'z cholg'usini dirijyorlik tayoqchasiga almashtirib, orkestrni boshqarishdek og'ir, mas'uliyatli va sharaflil vazifani o'z zimmasiga oladi. Xalq cholg'ulari orkestrlarini asar ijrosi boshlanishidan to yakunlangunga qadar bir rahbar, ya'ni dirijyor boshqarsa, ansamblida har doim ham bunday zarurat sezilmaydi.

Ansambl sozandalari uchun ular amalga oshirmoqchi bo'layotgan ijro niyatlarini muvofiqlashtirish, ularni umumiy mazmun bilan birlashtirish zarurati mavjud. Har bir ansamblida bu vazifa turli usullar yordamida amalga oshiriladi, lekin ko'pincha eng tashabbuskor, kasbiy nuqtai nazardan qobiliyatli, ansambl jamoasida yuqori mavqega ega bo'lgan, ba'zan esa harakatchan va tirishqoq sozanda ijrochilar orasida yetakchi vazifasini bajarib boradi. Ba'zan esa bu vazifani sozandalar galma-galdan bajaradilar. Ansambl repetitsiyalarining muvaffaqiyatli o'tishi har bir sozandaning ijodiy tashabbuskorligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Cholg'u ijrochiligi ta'limining dastlabki paytlaridan boshlab, nota cho'zimlarini vaqt birligiga nisbatan o'rgatib, boriladi. Nota cho'zimlari xaqidagi bilimlar ijrochilik san'atini egallashda asosiy bilimlardan hisoblanadi. Har qanday musiqa asarini ijro etishda nota cho'zimlarini anglashning cholg'uchilik mahorati asoslaridan biridir. Talabalardan musiqa ritmi tuyg'usini tarbiyalash ishiga ta'limning dastlabki paytlaridan kerakli darajada e'tibor berish haqiqiy sozandani shakllantirish uchun zamin yaratadi. Talaba musiqa ritmi, o'zlashtirmasdan turib, kelajakda sozanda sifatida shakllanishi mumkin emas. Taniqli pedagog va kompozitorlarning ta'kidlashicha, musiqa ritmining nota yozuvi orqali ko'rsatilishi uning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, musiqa ijrochiligidagi ritm o'zining tabiati bo'yicha ijodiy xarakterga egadir. Yuqorida aytib o'tilganidek, bevosita ijro paytidagina musiqa ritmining tub mohiyati va ma'nosiga tushunib etish mumkin. Musiqadan tashqarida, undan uzilgan holda musiqa ritmi tuyg'usi xosil bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas.

Yosh sozandaning musiqa ritmi tuygʻusini shakllantirish va rivojlantirishda qoʻshimcha imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlarning baʼzilarini quyida koʻrib chiqamiz. Ijro etilayotgan musiqa asarini sanash. Ijro paytida musiqa asarining ritmik sanab chalinishi tuzilishni osonroq tushunishga yordam beradi. Umuman ijro paytidagi sanash musiqa ritmini his etishda va mustahkamlashda foydalidir. Baʼzi talabalar ijro paytida ovozlarini baralla chiqarib sanashga odatlanib qoladilar va bu odatni tark etish kelajakda ancha qiyin boʻladi. Ayni shu fikrni oyoq bilan sanashga oʻrganib qolgan talabalar xususida ham aytish mumkin. Asar ijrosi paytidagi bunday sanashlar, albatta oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatadi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida bunday kamchiliklarni asta - sekinlik bilan yoʻqotish choralari koʻriladi. Tajriba ortib borgan sari oʻquvchida nota choʻzimlarining ritmik ijrosiga nisbatan ichki tuygʻu rivojlanib, bunday sanoqqa hojat qolmaydi.

Sozanda aniq ijro harakati orqali musiqa asari bilan tanishadi. Mana shuning oʻzi ham musiqa xotirasining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, musiqiy asarning ijrosi paytida sozandaning faolligi musiqa xotirasining faollashishiga ham yordam beradi. Haqiqatan ham, musiqa asarini tinglash va uni bevosita ijro etish bir-biridan farq qiladi. Tajribadan maʼlumki, musiqa asarini tinglashdan koʻra uni ijro etish vaqtida eslab qolish osonroq koʻchadi. Sozandaning ijro harakati ham uning musiqiy xotirasini rivojlantirishga va mustahkamlashga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Musiqa ijrochiligiga oʻrgatish musiqa xotirasini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Musiqa xotirasini mustahkamlash ustida talabaning muntazam ishlashi xotiraning takomillashishini taʼminlaydi. Yirik musiqa asarlari yod olishda umumiydan xususiyligiga qarab xarakat qilish kerakligini koʻplab mashxur cholgʻuchi - oʻqituvchilar aytib oʻtishgan. Boshqacha aytganda, musiqa asarining umumiy shakli va maʼnosini anglab olgandan soʻng alohida qismlarni oʻzlashtirishga kirishish kerak. Bunday qismlarni oʻzlashtirishga kirish kerak. Bunday qismlar nisbatan tugallangan va mustaqil boʻlishi zarur. Ijrochilik boʻyicha qiyin boʻlgan qismlarga koʻproq vaqt va eʼtibor berish kerak boʻladi. Yod olish uchun ajratib olinayotgan qismlar oʻzining hajmi jihatidan juda katta boʻlmasligi zarur. Ijrochilik va pedagogik tajriba koʻrsatadiki, asarni yod olishda undagi «maʼnodor» xarakterli oʻrinlarga tayanish yaxshi natija berishi mumkin. Shuningdek, musiqiy fikr (faza)ning boshlanishi va tugashini aniqlab olish, oʻziga xos bezakli oʻrinlarga eʼtibor berish ham mustahkam yod olishga yordam beradi.

Ansaml ijrochiligi darslari oʻquvchilarning musiqiy saviyasi, texnikasi va jamoada ishlash koʻnikmasini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, Qashqar rubobi milliy cholgʻu ansambllarida asosiy sozlardan biri hisoblanib, uning texnik imkoniyatlari kengdir. Ushbu maqolada Qashqar rubobi sinfi misolida ansaml ijrochiligi darslarida oʻquvchilarning texnik mahoratini oshirish metodlari haqida soʻz yuritiladi.

1. Qashqar rubobi va uning ansambl ijrochiligidagi o'rni

Qashqar rubobi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli cholg'u bo'lib, o'zining o'ziga xos ovoz tembri va texnik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ansambl tarkibida Qashqar rubobi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Melodik yetakchi: Asosiy kuy chizig'ini ijro etadi.
- Ritm-garmonik asos: Boshqa cholg'ular bilan uyg'unlikda akompanement vazifasini bajaradi.
- Improvizatsiya elementi: Qashqar rubobi ansamblida solo parchalari orqali ijodiy ifodani kuchaytiradi.

2. Ansambl ijrochiligi darslarining asosiy vazifalari

- O'quvchilarning birgalikda ijro qilish ko'nikmasini shakllantirish.
- Ritm, temp va dinamika borasida jamoaviy uyg'unlikni rivojlantirish.
- Ijro texnikasi va musiqiy saviyani oshirish.
- O'quvchilarning musiqiy didini shakllantirish va milliy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish.

3. Ijro texnikasini rivojlantirish metodlari

3.1. Texnik mashqlar tizimini yaratish

Ijro texnikasini oshirish uchun bosqichma-bosqich mashqlar amalga oshiriladi:

- Barmoq mustahkamlash mashqlari: Har kuni gamma va arpejlarni turli tempda bajartirish.
- O'ng qo'l texnikasi: Mediator bilan alternatsiyali (navbatma-navbat) chertish usulini mashq qilish.
- Chap qo'l mashqlari: Pozitsiyalar bo'ylab legato va stakkato texnikalarini o'rganish.
- Ritmika ustida ish: Metronom yordamida ansamblga mos keladigan ritmik tuyg'uni rivojlantirish.

3.2. Ansamblida uyg'unlikni rivojlantirish

- "Savol-javob" texnikasi: O'quvchilar bir-biriga ohangli savol-javob qilish orqali musiqiy dialogni rivojlantiradilar.
- Unison va polifoniya mashqlari: Barcha cholg'ular bir xil ohangda (unison) va turli partiyalarda (polifoniya) ijro qilishni o'rganadilar.
- Ritm guruhlar bilan ishlash: Perkussiya cholg'ulari bilan uyg'unlikda ishlash orqali o'quvchilarning ritmik sezgisini oshirish.

3.3. Repertuar tanlashning ahamiyati

Repertuar o'quvchilarning yoshiga va texnik darajasiga mos bo'lishi kerak:

- Boshlang'ich bosqichda: Oddiy xalq kuylarini ansambl uchun moslashtirib ijro qilish.
- O'rta bosqichda: Mashhur dutor va Qashqar rubobi ijrochilari repertuaridan namunalar.

- Yuqori bosqichda: Polifonik tuzilishga ega bo'lgan maqom va xalq ansamblari ijrosi.

4. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar

- Audio va video yozuvlar orqali tahlil: O'quvchilarning ijrolarini yozib, xatolarni tahlil qilish.

- Virtual ansambl texnikasi: Turli cholg'ular partiyalarini alohida yozib, keyinchalik birlashtirish.

- Onlayn platformalardan foydalanish: YouTube va musiqiy ilovalar orqali ustozlar ijrosini o'rganish.

5. O'quvchilarning mustaqil ishi va nazorat tizimi

- Kunlik repetitsiyalar: Har bir o'quvchi o'z partiyasini to'liq o'zlashtirish uchun mustaqil ravishda mashq qiladi.

- Ijro kundaligi yuritish: O'quvchilar o'z mashg'ulotlarini yozib boradi va o'z texnikasini rivojlantirish bo'yicha maqsadlar belgilaydi.

- Jamoaviy konsertlar: O'quvchilarning sahna tajribasini oshirish va ularni ansamblda ishlashga o'rgatish.

- Ota-onalarni konsertlarga jalb qilish: Ularning farzandlari yutuqlarini ko'rishlari orqali qiziqishni oshirish.

- Mahalliy tadbirlarda qatnashish: O'quvchilar ansamblining chiqishlari orqali tajriba orttirish.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qashqar rubobi sinfi misolida ansambl ijrochiligi darslarida o'quvchilarning texnik mahoratini rivojlantirish uchun to'g'ri metodik yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Ansambl darslari orqali o'quvchilarda nafaqat ijro texnikasi, balki jamoaviy ishlash, musiqa tinglash madaniyati va milliy merosga hurmat tuyg'usi rivojlanadi. Shu bois, darslarni ijodiy va samarali tashkil qilish orqali kelajakda mohir Qashqar rubobi ijrochilarini yetishtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. СС Болта-Зода. Принципы и приложения музыкальной формы. Science and Education 5 (2), 432-438

2. СБ Саидий. Нестандартные психологические структуры и модуляция в педагогике. Science and Education 5 (2), 348-354

3. СС Болта-Зода. Обменное приёмы аккордов семейство субдоминанты и доминанты использование на фортепиано. Science and Education 5 (2), 439-444

4. СБ Саидий. Художественно-педагогическое общение как средство формирования музыкальной мотивации школьников. Science and Education 5 (2), 322-327

5. Саидий, Саид Болта-зода. Адаптивность детей к школе при посещении и непосещении дошкольного учреждения. *Science and education* 4 (5), 1105 - 1112
6. Ропиева, Дурдона Акмаль кизы, Саид Болтазода, Саидий. Технологии формирования и развития вокально-хорового навыка студентов через народные песни. *Science and Education* 4 (2), 1330-1336
7. СБ Саидий. Определения понятий диктанта в теории музыки. *Science and Education* 3 (12), 823-828
8. Саидий, Саид Болта-зода. Бекзод Турсун угли Алиев. Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. *Science and Education* 3 (5), 1484-1492
9. Саидий, Саид Болта-зода. Мурадова, Махлиё Раджабовна, Эрназарова, Азиза Фахритдин кизи. Интерактивные методы обучения творчеству русских композиторов классе фортепиано в детской музыкальной школы. *Science and Education* 3 (4), 1605-1611
10. Саидий, Саид Болта-зода. Алиев, Бекзод Турсун угли. Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. *Science and Education* 3 (5), 1484-1492
11. Саидий, Саид Болта-зода. Эрназарова, Азиза Фахритдин кизи. Интерактивная методика обучения жанрам, созданных на народные лады, учащимся музыкальных и художественных школ. *Science and Education scientific journal* 4 (ISSN 2181-0842), 1618
12. Саидий, Саид Болта-зода. Механизмы формирования культуры почитания человеческих ценностей у старшеклассников на основе фольклора в хоре. *Science and Education* 4 (2), 1386-1391
13. Саидий, Саид Болта-зода. Психологические характеристики музыкальных звуков. *Узбекистан* 2 (2), 76-82
14. Ибрагимов, Умид Собиржонович, Саид Болтазода, Саидий. Современные методы формирования техники исполнения студентов на занятиях. *Science and Education* 4 (2), 1234-1239
15. Ропиева, Дурдона Акмаль кизы, Саид Болтазода, Саидий. Технологии формирования и развития вокально-хорового навыка студентов через народные песни. *Science and Education* 4 (2), 1330-1336
16. Саидий, Саид Болта-Зода, Мурадова, Махлиё Раджабовна, Эрназарова, Азиза ... Интерактивные методы обучения творчеству русских композиторов классе фортепиано в детской музыкальной школы. *Science, and Education* 3 (4), 1605-1611
17. Саидий, Саид Болтазода. О некоторых простейших обобщениях приёмов и методов по музыке общеобразовательной школе. *Science and Education* 3 (8), 196-203

18. Саидий, Саид Болта-Зода, Салимова, Бахринисо Бахромжон кизи. Вариационный подход к построению однородной музыки, размышление идеального подхода к её решению. *Science and Education* 3 (8), 138-144
19. Саидий, Саид Болта-Зода, Рустамов, Азизбек Рустам ўғли. Выработка отдельных музыкальных способностей: ритмического и тембрового слуха. *Science and Education* 3 (8), 151-155
20. Саидий, Саид Болтазода. Сложный принцип формообразования в изоритмическом сложений музыки. *Science and Education* 3 (11), 962-969
21. Саид Болта-Зода, Саидий. Основные направления возбуждения мелкой моторики по направление музыки. *Science and Education* 3 (10), 582-590
22. Саидий, Саид Болта-Зода. Песни, обработка народных песен и развития мастерства учащихся. *Science and education*. 3 (4), 1200-1205
23. Саидий, Саид Болта – зода. Об эффектном влияние теории, в создании музыкального произведения. *Science and Education* 3 (12), 864 - 870
24. Саидий, Саид Болта-Зода, Ропиева, Дурдона Акмал кизи. Проблемы совершенствования управления музыкальной деятельностью дошкольного образовательного учреждения. *Science and Education* 3 (8), 183-188
25. Саид Болтазода, Саидий. Эффект образования музыки к системы общеобразовательной школы. *Science and Education* 3 (8), 224-230
26. Саид Болтазода, Саидий, Субхонов, Отабек Адилевич. Основы управления музыкального диктанта по сольфеджио. *Science and Education* 3 (3), 825-830
27. Саидий, Саид Болта-Зода. Обратный сдвиг гармоничный линии в многоголосных произведениях. *Science and Education* 3 (12), 871 -877
28. Саидий, Саид Болта-Зода. Повышение или понижение основных ступеней, знаки альтерации. *Science and Education* 3 (12), 878 - 884
29. Саидий, Саид Болта-Зода. Элементы абстрактной и абсолютной звучании музыкального звука. *Science and Education* 4 (1), 597-603
30. Саидий, Саид Болта-Зода. Теоретическое рассмотрение вероятности совпадения неаккордовых звуков в произведениях. *Science and Education* 4 (1), 556-562